

IJTIMOIIY TARAQQIYOT INDEKSI: ATROF-MUHIT VA HAYOT SIFATI O'RTASIDAGI SABAB-OQIBAT BOG'LANISHLARI

Sattikulova Gavxarniso Axmadxanovna

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17061392>

Annotatsiya. Maqolada O'zbekistonning Ijtimoiy taraqqiyot indeksi (SPI) ko'rsatkichlari tahlil qilingan va atrof-muhit sifati bilan aholi hayot sifati o'rtasidagi sabab-oqibat bog'lanishlari o'rganilgan. Tadqiqot O'zbekistonning 2015-2024 yillarda SPI reytingidagi o'zgarishlarini ko'rsatadi: indeks 61,33 dan 68,46 gacha oshib, jahon reytingida 98-o'rindan 76-o'ringa ko'tarilgan. Tadqiqot natijalari O'zbekistonning "atrof-muhit sifati" bo'yicha zaif ko'rsatkichlarga ega (53,99 indeks, 141-o'rin) ekanini ko'rsatadi. Maqolada havoning ifloslanishi, biologik xilma-xillikni saqlash va chiqindilarni qayta ishlash sohalarida takomillashtirish chora-tadbirlari taklif qilingan.

Kalit so'zlar: ijtimoiy taraqqiyot indeksi, atrof-muhit sifati, hayot sifati, barqaror rivojlanish, ekologik muammolar, O'zbekiston.

Ma'lumki, hozirgi paytda zaruriy iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlashga asosiy masala sifatida qaraladi va uning hal etilishi yalpi ichki mahsulot (YaIM)ning mutlaq va nisbiy o'zgarishi bilan bog'lanadi. Iqtisodiy o'sish ko'rsatkichining asosiy afzalligi shundan iboratki, u YaIMning real o'sishi, mehnat unumdorligi sohasida erishilgan natijalar to'g'risida ma'lumot beradi, mamlakatning iqtisodiy qudratini ifodalaydi. Shu bilan birga bu ko'rsatkich mahsulot qanday taqsimlanayotganini, uning ekologik vaziyatga salbiy ta'sirini o'zida aks ettira olmaydi. Birgina YaIMning yuqori darajasi aholi hayot sifati yaxshilanayotganligiga kafolat bermaydi, chunki aholi farovonligiga boshqa omillar ham ta'sir ko'rsatadi.

Mavzu bo'yicha adabiyotlar tahlili. So'nggi yillarda iqtisodiy o'sish ijtimoiy rivojlanishning yetarli va adekvat ko'rsatkichi emas ekanligi to'g'risidagi g'oya ko'plab iqtisodchilar tomonidan tan olinmoqda. YaIM o'sishi ko'rsatkichidan ko'p foydalanish bilan birga turli ilmiy ishlarda ushbu ko'rsatkichni tanqid

qiluvchilar va uning barcha jihatlarini qamrab olishiga asosli ravishda shubha bilan qarayotganlar sonining o'sib borayotganligini ko'rish mumkin¹.

Bir qator iqtisodchilar “asosiy e'tiborni iqtisodiy ishlab chiqarishdan kishilarning farovonligi o'lchoviga qaratish vaqti kelganligini”² ta'kidlaydilar. Shu bilan birga “hayot sifati” tushunchasi “farovonlik” bilan sinonim sifatida qo'llaniladi. Ko'plab tadqiqotchilar farovonlik (hayot sifati)ni ko'p qirrali tushuncha hisoblaydilar³. Hayot sifatiga ekologik vaziyat, iqlim o'zgarishlari kabi omillar katta ta'sir ko'rsatadi. Ushbu ta'sirlarni hisobga olgan holda aholi hayot darajasiga baho berish bugungi kundagi dolzarb maasalardan hisoblanadi.

Muammoni hal qilish yo'llari. Ma'lumki, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish o'rtasidagi yuqori korrelyatsion bog'lanish ko'p jihatdan iqtisodiy nuqtai nazardan rivojlangan mamlakatlarning ijtimoiy sohaga investisiyalar kiritish imkoniyatlari katta ekanligi bilan izohlanadi. Shu bilan birga iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish o'rtasidagi sabab-oqibat bog'lanishlarining boshqa yo'nalishi ham mavjud: sog'liqni saqlash, ta'lim, shaxsiy xavfsizlik, ekologiya, iqlim o'zgarishlari va boshqa sohalarda erishilgan muvaffaqiyatlar iqtisodiy ko'rsatkichlarning yaxshilanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu munosabat bilan aholi hayot darajasiga baho berishda Ijtimoiy taraqqiyot indeksi alohida qiziqish uyg'otadi⁴.

¹ Смирнов В. М. Индекс социального прогресса в системе измерителей социального развития России и ее регионов / Проблемы экономики и юридической практики, 2017. – №6. – С.16.

² Локосов В.В., Ярашева А.В. Социальный кодекс России: pro et contra. Монография / Москва, 2014

³ Айвазян С.А. Россия в межстрановом анализе синтетических категорий качества жизни населения: Методология анализа и пример ее применения // Мир России. — 2001. — 4. С. 59–96.; Бобков В.Н., Масловский-Мстиславский П.С. Качество жизни: концепция и измерение. М.: ВЦУЖ. 1998. — 34 с.; Diener E., Seligman M. Beyond money: Toward an economy of well-being // Psychological Science in the Public Interest. — 2004. — 5(1). P. 4.; Diener E. The Science of Well-Being: The Collected Works of Ed Diener. Social Indicators Research Series 37. New York: Springer. 2009. http://dx.doi.org/10.1007/978-90-481-2350-6_2; Michaelson J., Abdallah S., Steuer N., Thompson S., Marks N. National accounts of well-being: Bringing real wealth onto the balance sheet. London: New Economics Foundation. 2009; Porter M.E., Stern S., Green M. Social progress index 2015. The Social Progress Imperative. 2015. <http://www.socialprogressimperative.org/>

⁴⁴ Смирнов В. М. Индекс социального прогресса в системе измерителей социального развития России и ее регионов / Проблемы экономики и юридической практики, 2017. – №6. – С.16.

⁴ Локосов В.В., Ярашева А.В. Социальный кодекс России: pro et contra. Монография / Москва, 2014

⁴ Айвазян С.А. Россия в межстрановом анализе синтетических категорий качества жизни населения: Методология анализа и пример ее применения // Мир России. — 2001. — 4. С. 59–96.; Бобков В.Н., Масловский-Мстиславский П.С. Качество жизни: концепция и измерение. М.: ВЦУЖ. 1998. — 34 с.; Diener E., Seligman M. Beyond money: Toward an economy of well-being // Psychological Science in the Public Interest. — 2004. — 5(1). P. 4.; Diener E. The Science of Well-Being: The Collected Works of Ed Diener. Social Indicators Research Series 37. New York: Springer. 2009. http://dx.doi.org/10.1007/978-90-481-2350-6_2; Michaelson J., Abdallah S., Steuer N., Thompson S., Marks N. National accounts of well-being: Bringing real wealth onto the balance sheet. London: New Economics Foundation. 2009; Porter M.E., Stern S., Green M. Social progress index 2015. The Social Progress Imperative. 2015. <http://www.socialprogressimperative.org/>

“Ijtimoiy taraqqiyot indeksi – bu jamiyatning o‘z fuqarolarining asosiy insoniy ehtiyojlarini qondira olish, fuqarolar va aholi guruhlariga hayot sifatini saqlab qolish va qo‘llab-quvvatlash imkonini beradigan asos (bazis) qurish, shuningdek, barcha kishilarga o‘z salohiyatlariga erishishlari uchun imkoniyatlar yaratib bera olish qobiliyatidir”⁵. Shuni alohida qayd etish lozimki, Ijtimoiy taraqqiyot indeksi yalpi ichki mahsulotni hisobga olmaydi va mamlakatlar rivojlanishining ijtimoiy va ekologik jihatlariga asosiy e‘tibor qaratadi.

Ijtimoiy taraqqiyot indeksi uchta tarkibiy qismdan iborat: insonning asosiy ehtiyojlari, farovonlik asosi va imkoniyatlar. Bularning har biri yana bir nechta komponentlarga bo‘linadi (har bir o‘lchov uchun to‘rtta komponent). Har bir komponent 3 dan 6 tagacha ko‘rsatkichga ega. Ijtimoiy taraqqiyot indeksi uchta yuqorida keltirilgan ko‘rsatkichlarning o‘rtacha arifmetik qiymatiga teng. Har bir ko‘rsatkich, o‘z navbatida to‘rtta komponentning o‘rtacha arifmetik qiymatiga teng. Indeks va uning ko‘rsatkichlari 0-100 shkala bo‘yicha o‘lchanadi.

Ijtimoiy taraqqiyot indeksi asosan natijaga asosiy e‘tiborni qaratib, unga qanday erishish uchun sarflangan xarajatlarni e‘tiborga olmaydi. Shunga qaramasdan ushbu indeks iqtisodiy natijalarning ijtimoiy va ekologik samarasi haqida fikr yuritish imkoniyatini beradi.

Miqdoriy ko‘rsatkichlarda ifodalanovchi ko‘plab boshqa indekslardan farqli o‘laroq, ijtimoiy taraqqiyot indeksi so‘rovlar, intervyular va boshqa vositalar orqali to‘plangan farovonlik va ijtimoiy taraqqiyotning sifatli ma’lumotlari va sub’ektiv baholarini ham o‘z ichiga oladi. Shu bilan birga u ijtimoiy rivojlanish ko‘rsatkichlari va ustuvorliklari turli mintaqalar va jamiyatlar o‘rtasida sezilarli darajada farq qilishi mumkinligini tan olgan holda mahalliy kontekst va madaniy xususiyatlarning dolzarbligini ham hisobga oladi.

Agar O‘zbekistonda ijtimoiy taraqqiyot indeksining 2015-2024-yillar bo‘yicha o‘zgarishini tahlil qiladigan bo‘lsak, uning qiymati muntazam o‘sish tendensiyasiga ega bo‘lgan. Agar 2015 yilda O‘zbekistonning ijtimoiy taraqqiyot

Porter M.E., Stern S., Green M. Social progress index 2015. The Social Progress Imperative. 2015. <http://www.socialprogressimperative.org/>

⁵ The Social Progress Imperative. 2015. <http://www.socialprogressimperative.org>

indeksi 61,33 ni tashkil qilib, jahon mamlakatlari orasida 98-o‘rinni egallagan bo‘lsa, 2024 yilga kelib ijtimoiy taraqqiyot indeksi 7,13 nuqtaga, ya’ni 68,46 gacha o‘sgan. Buning natijasida jahonning 170 mamlakati orasida 76-o‘ringa ko‘tarilgan (1-jadval).

O‘zbekistonning “kuchli” jihatlariga “insonning asosiy ehtiyojlari”ning qondirilishini (89,18 Indeks bilan 30-o‘rin) kiritish mumkin. “Farovonlik asosi” (65,68 Indeks bilan 84-o‘rin) va ayniqsa, “Imkoniyatlar” (50,51 Indeks bilan 98-o‘rin) eng “zaif” jihatlar hisoblanadi.

“Insonning asosiy ehtiyojlari” yo‘nalishini tashkil etuvchi barcha komponentlar orasida O‘zbekistonda eng yaxshi ko‘rsatkich “Xavfsizlik” (85,66 Indeks bilan 21-o‘rin) sohasida kuzatiladi.

1-jadval

O‘zbekistonning 2015-2024-yillarda ijtimoiy taraqqiyot indeksidagi o‘rnining o‘zgarishi⁶

Yillar	Ijtimoiy taraqqiyot indeksi	Ijtimoiy taraqqiyot indeksidagi o‘rni	Insonning asosiy ehtiyojlari	Insonning asosiy ehtiyojlari bo‘yicha o‘rni	Farovonlik asosi	Farovonlik asosi bo‘yicha o‘rni	Imkoniyatlar	Imkoniyatlar bo‘yicha o‘rni
2015	61,33	98	87,73	36	60,00	90	36,46	141
2016	52,05	95	88,65	30	60,75	96	36,76	140
2017	62,99	93	88,98	29	62,29	94	37,69	135
2018	64,10	91	88,82	32	62,50	95	40,97	130
2019	64,51	93	88,49	37	63,43	97	41,61	127
2020	66,15	86	88,40	38	66,68	83	43,38	122
2021	66,77	84	88,48	40	67,26	83	44,58	117
2022	66,68	85	88,60	39	66,82	83	44,61	119
2023	66,88	81	88,79	35	66,41	78	45,45	117
2024	68,46	76	89,18	30	65,68	84	50,51	98
2024 yilda 2015 yilga nisbatan o‘zgarishi	+7,13	+22	1,45	+6	5,68	+6	+14,05	+43

Eng past ko‘rsatkich “Oziqlanish va tibbiy xizmat” (90,40 Indeks bilan 48-o‘rin) va “Suv va sanitariya” (90,67 Indeks bilan 48-o‘rin) sohasida qayd etilgan. Bu

⁶ <https://www.socialprogress.org/global-index>

holat “bola o‘shining kechikishi” (76,29 Indeks bilan 79-o‘rin), “bolalar o‘limi” (92,21 Indeks bilan 78-o‘rin), “asosiy suv ta‘minoti” (95,32 Indeks bilan 78-o‘rin), “xavfsiz suv, sanitariya va gigiena” (99,19 Indeks bilan 67-o‘rin) “asosiy sanitariya xizmatlari” (96,13 Indeks bilan 63-o‘rin), “onalar o‘limi” (97,08 Indeks bilan 60-o‘rin), “infeksion kasalliklar (92,93 Indeks bilan 50-o‘rin) darajasining yuqoriligi bilan izohlanadi.

“Farovonlik asosi”ga tegishli komponentlar orasida O‘zbekiston asosiy bilimlardan foydalanish (88,18 Indeks bilan 36-o‘rin) bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkichga ega. Eng past ko‘rsatkich sifatida “atrof-muhit sifati” (53,99 Indeks bilan 141-o‘rin)ni ajratib ko‘rsatish mumkin. Bu holat “tashqi havoning ifloslanishi” (45,63, 167-o‘rin) va “zarrachalar bilan ifloslanish”ning (63,46 Indeks bilan 120-o‘rin) yuqoriligi bilan izohlanadi.

“Imkoniyatlar” yo‘nalishini tashkil etuvchi komponentlar orasida nisbatan yaxshi ko‘rsatkich “Erkinlik va huquq” (75,27 Indeks bilan 61-o‘rin) sohasida kuzatilsa, “Huquq va ovoz berish” (32,87 Indeks bilan 134-o‘rin), “Oliy ta‘lim” (42,71 Indeks bilan 87-o‘rin), “Inklyuziv jamiyat” (51,21 Indeks bilan 89-o‘rin) sohalarida past ko‘rsatkichlar qayd etilgan.

Ko‘rinib turibdiki, O‘zbekiston aholisi hayot sifatiga iqlim o‘zgarishlari va ekologik vaziyat bilan bog‘liq omillar kuchli salbiy ta‘sir ko‘rsatmoqda. Ushbu ko‘rsatkichlarni miqdor va sifat jihatidan yaxshilash aholi turmush darajasining oshishi va ijtimoiy taraqqiyotning jadallashishiga olib keladi.

Biz ijtimoiy taraqqiyot indeksi komponentlarini quyidagi shkala bo‘yicha tabaqalashtirdik: 0,00-0,50 – “eng past”; 0,50-0,60 – “past”; 0,60-0,70 – “o‘rtachadan past”; 0,70-0,80 – “o‘rtachadan yuqori”; 0,80-0,90 – “yuqori”; 0,80-1,00 – “eng yuqori”.

Bunday tabaqalashtirishni O‘zbekistonning “Ijtimoiy taraqqiyot indeksi” subindikatorlari bo‘yicha amalga oshirganimizda atrof-muhit sifati ko‘rsatkichi bo‘yicha O‘zbekiston eng past ko‘rsatkichga ega ekanligi va 2023-yilda 100 imkoniyatdan 42,19 ball to‘plaganligining guvohi bo‘ldik. Shu sababli bu ko‘rsatkichni yaxshilash nafaqat mamlakatimizning ushbu reytingdagi o‘rnining

oshishiga, balki respublikamiz aholisi hayot darajasining yaxshilanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga atrof-muhit sifatini yaxshilash bo'yicha birinchi darajali vazifalarini aniqlash va ularni hal etish yuzasidan chora-tadbirlar imkoniyati yuzaga keladi.

Ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar. O'zbekistonda "Atrof-muhit sifati" subindikator tarkibiga kiruvchi ko'rsatkichlar qiymatini oshirish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

1. Tashqi havoning ifloslanishi. Ushbu indeks qiymatini yaxshilash, eng avvalo, havoning ifloslanishiga olib keladigan manbalarni qisqartirish bilan bog'liq bo'lib, bizning fikrimizcha, quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirishni taqozo etadi:

- yo'lda transport vositalari soni va chiqindilarni kamaytirish uchun jamoat transporti, piyoda va velosipeddan foydalanishni ko'paytirish;
- ifloslantiruvchi moddalar chiqarilishini nazorat qilish uchun sanoat korxonalari va transport vositalariga nisbatan qat'iy qoidalarni joriy etish;
- quyosh va shamol energiyasi kabi toza energiya manbalaridan foydalanishni rag'batlantirish;
- daraxtlar ekish va ifloslantiruvchi moddalarni o'zlashtirish va havo sifatini yaxshilash uchun yashil maydonlar yaratish;
- havoning ifloslanishini kamaytirishning ahamiyati haqida ma'lumotlarni keng targ'ib qilish, energiya sarfini kamaytirishni rag'batlantirish;
- barqaror rivojlanishga yordam beruvchi va inson faoliyatining atrof-muhitga ta'sirini kamaytirishga qaratilgan siyosatni qo'llab-quvvatlash va h.k..

2. O'simliklar, hayvonot dunyosi himoyasi. O'simlik va hayvonot dunyosini muhofaza qilish biologik xilma-xillikni saqlash va ekotizimlar salomatligini saqlashda muhim ahamiyatga ega. Fikrimizcha, o'simliklar, hayvonot dunyosini muhofaza qilish indeksini yaxshilash uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

- yashash joylarini saqlab qolish uchun milliy bog'lar, tabiiy qo'riqxonalar kabi hududlarni barpo etish;

- o'simlik va hayvon turlariga tahdid soluvchi brakonerlik, noqoqnuniy daraxt kesish va baliq ovlashning oldini olish bo'yicha qonunchilikni qayta ko'rib chiqish va takomillashtirish;

- o'simlik va hayvonot dunyosini muhofaza qilishning ahamiyatini keng ommaga tushuntirish uchun tabiatni muhofaza qilish sa'y-harakatlarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan tadbirlarga ta'lim, tadqiqot va jamoatchilikni jalb qilish.

- o'rmonlar, o'simlik va hayvonlar yashash joylari hamda populyatsiyasini tiklashga qaratilgan tabiatni muhofaza qilish dasturlarini ishlab chiqish va ularni izchillik bilan amalga oshirish;

- tabiatni muhofaza qilish strategiyalari va tashabbuslarini ishlab chiqish uchun mahalliy hukumatlar, NNT va xalqaro tashkilotlar hamkorligini mustahkamlash va h.k.

3. Qayta ishlash. Chiqindilarni kamaytirish, resurslarni tejash va atrof-muhitni muhofaza qilishda qayta ishlash indeksini yaxshilash muhim ahamiyat kasb etadi. Buning uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

- jamoatchilikni qayta ishlashning ahamiyati, afzalliklari va turli materiallarni qanday qilib to'g'ri saralash va qayta ishlash mumkinligi haqidagi ma'lumotlar bilan tanishtirish va undan manfaatdorligini oshirish;

- kishilarni qayta ishlashga undash uchun qayta ishlash qutilarini jamoat joylarida, ish joylarida, maktablarda va turar-joylarda oson foydalanish mumkin bo'lgan holatga keltirish;

- har xil turdagi materiallarni yo'l chetidan olib ketish, tushirish joylari va qayta ishlash markazlarini o'z ichiga olgan qayta ishlash bo'yicha kompleks dasturlarni ishlab chiqish va ularni amalga oshirish;

- jismoniy shaxslar va korxonalarni qayta ishlash dasturlarida ishtirok etishga undash uchun pul mukofotlari, chegirmalar yoki qayta ishlash uchun vaucherlar kabi imtiyozlarni taqdim etish;

- qayta ishlashni yanada samarali va tejamkor qilish uchun saralash inshootlari, qayta ishlash zavodlari va qayta ishlash markazlari kabi qayta ishlash infratuzilmasiga sarmoya kiritishni rag'batlantirish;

- barqaror amaliyotlarni targ'ib qilish, chiqindilar hosil bo'lishini kamaytirish va mahsulot va qadoqlashda qayta ishlangan materiallardan foydalanishni ko'paytirish uchun korxonalarning o'zaro hamkorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar tizimini ishlab chiqish va amalga oshirish;

- qayta ishlashning operativligini oshirish va chiqindilarni kamaytirish uchun yangi qayta ishlash texnologiyalari, jarayonlari va materiallarini tadqiq qilish va rivojlantirishga investisiyalar kiritishni rag'batlantirish va h.k.

Adabiyotlar:

1. Смирнов В. М. Индекс социального прогресса в системе измерителей социального развития России и ее регионов / Проблемы экономики и юридической практики, 2017. – №6. – С.16.
2. Локосов В.В., Ярашева А.В. Социальный кодекс России: pro et contra. Монография / Москва, 2014
3. Айвазян С.А. Россия в межстрановом анализе синтетических категорий качества жизни населения: Методология анализа и пример ее применения // Мир России. – 2001. – №4. – С. 59–96.
5. Diener E. The Science of Well-Being: The Collected Works of Ed Diener. Social Indicators Research Series 37. New York: Springer. 2009. http://dx.doi.org/10.1007/978-90-481-2350-6_2
6. Michaelson J., Abdallah S., Steuer N., Thompson S., Marks N. National accounts of well-being: Bringing real wealth onto the balance sheet. London: New Economics Foundation. 2009
7. Porter M.E., Stern S., Green M. Social progress index 2015. The Social Progress Imperative. 2015.
8. <http://www.socialprogressimperative.org>.